

**ISHEMIK INSULTDAN KEYINGI ERTA REABILITATSIYA CHORA-
TADBIRLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI****Jabbarova Risolat Baxtiyor qizi****Respublika Shoshilinch Tibbiy yordam Yordam Ilmiy Markazi****Toshkent sh. O`zbekiston**e-mail: jasurdoctor601@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda ishemik insultdan keyingi erta rehabilitatsiya dasturlarining samaradorligi klinik jihatdan tahlil qilindi.

Tadqiqotning maqsadi — insultdan keyin nevrologik tiklanish tezligiga fizioterapiya, logopedik mashg‘ulotlar, farmakologik neyroproteksiya va psixologik yordamning ta’sirini baholashdan iborat.

Tadqiqot materiallari sifatida 2023–2024 yillarda Toshkent shahridagi rehabilitatsiya markazida davolangan 45 nafar ishemik insultli bemorlarning klinik kuzatuv natijalari o‘rganildi. Bemorlar erta rehabilitatsiya (insultdan so‘ng 3–5 kun ichida boshlangan) va kechikkan rehabilitatsiya (10 kundan so‘ng boshlangan) guruhlariga bo‘lindi. Baholash mezonlari sifatida NIHSS va Bartel indeksi qo‘llanildi. . **Natijalar** shuni ko‘rsatdiki, erta rehabilitatsiya o‘tkazilgan bemorlarda 30 kun ichida NIHSS balli o‘rtacha 38% ga kamaygan, Bartel indeksi esa 47% ga yaxshilangan. Kech boshlangan guruhda esa tiklanish dinamikasi 25–28% atrofida bo‘lgan. Fizioterapiya va logoped mashg‘ulotlarining kombinatsiyasi, shuningdek Mexidol va Cerebrolysin kabi preparatlar bilan neyroprotektiv yondashuvlar samaradorlikni oshirgan.

Xulosa. Ishemik insultdan keyingi erta rehabilitatsiya kompleks yondashuv bilan amalga oshirilganda nevrologik funksiyalar tezroq tiklanadi va nogironlik darajasi kamayadi. Rehabilitatsiyani insultdan keyingi dastlabki 3–5 kun ichida boshlash optimal natija beradi.

Kalit so‘zlar: insult, rehabilitatsiya, ishemik insult, fizioterapiya, neyroproteksiya, logopedik mashg‘ulotlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bernhardt J. et al. Early rehabilitation after stroke: an evidence-based review. Stroke, 2020.
2. Winstein C.J. et al. Guidelines for adult stroke rehabilitation and recovery. Stroke, 2023.

3. O‘zbekiston Respublikasi SSV. 'Insultdan keyingi reabilitatsiya' klinik protokoli, 2023.
4. Qodirov S.T. Neyroreabilitatsiyada zamonaviy yondashuvlar. Toshkent, 2022.
5. World Health Organization. Rehabilitation 2030: A call for action, 2024.